
**GAVHAR IBODULLAYEVA SHE'RIYATIDA QO'LLANGAN
OKKAZIONAL SO'ZLARGA BIR NAZAR**

Matchanov Muzaffar Ruzimboyevich

Ma'mun universiteti

NTM Filologiya fakulteti

“Roman-german filologiyasi”

kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya: *Ushbu maqola ijtimoiy jarayon sifatida tilning dinamik tabiati va uning uzluksiz evolyutsiyasini o'rganiladi, vaqti-vaqti bilan so'zlardan foydalanish uning o'sishi va hayotiylikiga qanday hissa qo'shishini o'rganadi. Ushbu asar til va madaniy o'ziga xoslik o'rtasidagi chuqur bog'liqlikni ta'kidlab, lingvistik ekspressivlik tilning tengdoshlari orasidagi mavqeining belgisi bo'lib xizmat qilishini va so'zlashuvchilarning ijtimoiy va ma'naviy chuqurligini aks ettiradi. Tilning rivojlanishi so'zlashuvchilarning rivojlanishi bilan chambarchas bog'liq. Unda yozuvchi va shoirlarning bu jarayondagi hal qiluvchi roli, xususan, o'zbek she'riyatida Xorazm adabiy muhiti sharoitida tahlil qilinadi. Bu adabiy siymolar yangi ibora va so'zlarni kiritish orqali tilning estetik va ijodiy imkoniyatlarini oshiradi, matn to'qimasida o'chmas iz qoldiradi.*

Kalit so'zlar: *Til, ijtimoiy jarayon, evolyutsiya, oraliq so'zlar, lingvistik yangilik, madaniy o'ziga xoslik, lingvistik ekspressivlik, yozuvchilar, shoirlar, Xorazm adabiy muhiti, o'zbek she'riyati, estetik salohiyat, Gavhar Ibodullayeva, badiiy matn, emotsional rezonans, metafora teranligi, obrazlilik, ijodiy ifoda, lingvistik konstruksiyalar, Matnazar Abdulhakim, matn to'qimasi, emotsional ta'sir, lingvistik birliklar, lug'at boyligi, she'riy to'plam, til taraqqiyoti, jamiyat taraqqiyoti, ijodiy hissalar.*

Til doimiy ravishda harakatda: o'sishda, rivojlanishda yoki “qulash”da bo'ladigan ijtimoiy jarayondir. Uning tarixiy, ijtimoiy-sotsial sabablari ko'p o'rganilgan. Bir narsa aniqki, til yoki tillarning ifoda imkoniyati uning boshqalari orasidagi darajasini belgilashga xizmat qiladi, yashovchanligini belgilaydi. Ehtimol, shu narsa tilning yashovchanligini ta'minlovchi narsadir. Bundan tashqari til shu tildan foydalanuvchi kishilar jamiyatining madaniy-ma'naviy saviyasini ham ko'rsatib turadigan bosh ko'rsatkich hisoblanadi. Shuning uchun ham hech bir xalq o'z tilidan saviya jihatidan ustun bo'la olmaydi. Demak, tilning rivojlanishi xalqning rivojlanish darajasiga proporsional bo'ladi.

Til tabiatidagi jozibadorligini o‘stirishda ko‘proq hissa qo‘shadigan jamiyat a‘zolari yozuvchi va shoirlar hisoblanadi. Ular tilni yangi so‘zlar, demakki, yangi ifodalar bilan doimiy ravishda bo‘yitib turadilar. Bu jarayon – tilning estetik vazifasini yanada mustahkamlashga hizmat qilishi ayon haqiqat.

Yozuvchining ijodkorligi mavjud so‘zlarning yangi ketma-ketligi asosidagi aytilmagan fikrgagina asoslanmasligi bugun dunyo tilshunosligida o‘z isbotini topib bo‘ldi.¹ Bu imkoniyat kichik bo‘lsa ham alohida ijodkorning matnda o‘z “muhri”ni qo‘ldirishga yordam beradi.

O‘zbek she‘riyatining ajarlmas qismi bo‘lgan xorazm adabiy muhiti vakillari ijodida ham boshqa ijodkorlarda bo‘lgani kabi yangilikka intilish juda kuchli. Bu nafaqat janriy tajribalarda balki so‘z ijodkorligida ham ko‘zga tashlanadi.

Bugungi kunda bu ijod maktabining ko‘zga ko‘ringan vakillari sifatida Omon Matjon, Matnazar Abdulhakim, Erkin Samandar, Bahrom Ro‘zimuhammad, Gavhar Ibodullayeva, Jimanazar Yusupov, Boltaboy Begmetov va boshqalarni ko‘rsatish mumkin. Bu qalamkashlar katta ijodiy potensialga egaligi, boy adabiy merosi bilan boshqalardan keskin ajralib turishadi. Ular yangi so‘z aytishda ham katta mahorat ko‘rsatishganligi diqqatga sazovor.

Bu adabiy muhitning nisbatan yosh vakilasi Gavhar Ibodillayevaning “O‘zingga meni yor et” she‘riy to‘plami tildida *soylanib*,² *nolinch*, *lolalanib*, *qizg‘aldoqlan*, *nargislan*, *nilufarlan* (O‘MY, 13), *yolg‘onlamas* (O‘MY, 23), *kumushlan* (O‘MY, 32), *majnunna* (O‘MY, 35), *ko‘kkanar*, *mehriston* (O‘MY, 46), *yo‘qin* (O‘MY, 53), *dorijon* (O‘MY, 56), *barqim*, *ho‘rsiqar [horsinadi ma‘nosida]* (O‘MY, 69), *zorangiz* (O‘MY, 70), *ilohat* (O‘MY, 75), *shahlolanar* (O‘MY, 81), *etaktosh* (O‘MY, 114), *dilsuv* (O‘MY, 155), *ko‘ngilzor* (O‘MY, 123; 125), *dilzor* (O‘MY, 125), *beruh* (O‘MY, 129) kabi ko‘plab okkazional birliklar qo‘llangan. Bu nutq birliklari favqulodda notabiyligi va kutilmaganligi bilan badiiy matn qurilishida muhim vazifa bajarganligini ko‘rish mumkin. Bundan tashqari bu birliklar tahliliga tayanib aytish mumkinki, shoira tilga sezgir ijodkor va uning ijodiy tajribalari katta ijodkorlar maktabidan ozuqlangani ko‘rinib turibdi. Vohaning taniqli ijodkori Matnazar Abdulhakim qalamiga mansub she‘rlar tilida “mevalanib” okkazional birligi ishlatiladi:

¹ Виноградова В.Н. Стилистический аспект русского словообразования. - М.: Наука, 1984; Виноградова В.Н. Стилистические средства словообразования // Стилистические исследования. -М.: Наука, 1972; 175-245 б. Ханпира Эр. Окказиональные элементы в современной речи //Стилистические исследования. - М.:Наука, 1972; Винокур Т.Г. Закономерности стилистического использования языковых единиц. - М.Наука, 1980; Бакина М.А. Словотворчество //Языковые процессы в современной русской художественной литературы. Поэзия.- М.:Наука, 1977; Виноградова В.В. Стилистические функции словообразовательно мотивированных слов в художественной прозе // Языковые процессы современной русской художественной литературы. Проза. - М.: Наука, 1977; Будагов Р.А. Эстетика языка //Русская речь. - 1975. - № 5.

² Ibdodullayeva G. O‘zingga meni yor et... She‘rlar. – Toshkent, Tafakkur qanoti, 2023. B.12. (Keying o‘rinlarda ushbu to‘plamdan olingan misollar qisqartirilgan shaklda qavs ichida beriladi (O‘MY, misol berilgan bet)

*Fasllar ariday qo‘nib uchadi,
Mevalanib borar inson degan gul.*³

Bu o‘rinda “mevalanib” so‘zi “inson” va “gul” so‘zlari bilan aloqaga kirishib go‘zal bir ifodani yuzaga keltirganini ko‘rish mumkin.⁴ Matnda bu so‘zning o‘rni yaqqol ajralib ko‘rinib turibdi, bu so‘z o‘quvchining e‘tiborini juda tez o‘ziga tortadi. Chunki o‘quvchi bunday so‘zga duch kelmagan, biroq uni tushunadi. Negaki u bu so‘z yasash qolipini oldindan biladi hamda so‘z tarkibidagi har ikkala qism (“meva”, “-lan”) o‘quvchi uchun ma‘lum. Shunday bo‘lsa ham “-lan” qo‘shimchasi uzula (joriy) tilda aniq otlarga qo‘shilishi kuzatilmaydi. Ayni shu narsa so‘zning noodatiyligini, badiiyligini ta‘minlagan.

Shu qolip asosida Gavhar Ibodullayeva ijodida ham so‘zlar yasalgan va ular matnda uyushtiruvchi vazifa bajarib kelgan:

*Kumushlandi o‘rog‘i,
Mushkul dilning so‘rog‘i (O‘MY, 32).
Nargizlanib, nilufarlanib,
Bodrab yotar ko‘ksimda sog‘inch!.. (O‘MY, 13)*

Shu o‘rinda mulohaza sifatida aytish kerakki, Gavhar Ibodullayeva Matnazar Abdulhakimdan olgan ulgini ancha boyitgan, ifoda imkoniyatlarini kengaytirgan va badiiy jozibasini yanada to‘ldirgan. Bu fikr ayniqsa ikkinchi misolda o‘z isbotini yaqqol namoyon qilib turibdi. Ma‘lumki, nargiz va nilufar gullari ochilganda shaklan ko‘zga o‘xshab ketadi. Ular go‘yo mahbubning shaxlo ko‘zlari kabi nigoron. Bu so‘zlar ikkinchi misradagi “bodramoq” va “ko‘ks” so‘zlari bilan integratsiyaga kirishib, g‘oyat darajada chiroyli ifodani yuzaga chiqargan; mashuqaning sog‘inchi shu darajaga yetgan – ko‘ksida yaralar ko‘z ochib nigohga aylangan va ular endi yaraga emas go‘zal gullarga mengzaydi. To‘g‘rida, muhabbatning azobi-da shirin, yarasida – go‘zal.

Badiiy adabiyotda Majnun obrazi oshiq timsolida ishlatilishi keng ommalashgan, biroq shoira uni teskari ma‘noda ya‘ni mashuqa ma‘nosida ustalik bilan qo‘llab, yangicha ma‘noga qo‘l uradi:

*Sen-ey, devonayi zorim,
Men-ey **majnunayi** xoring... (O‘MY, 35)*

Bu o‘rinda Shirin, Layli, Shohsanam kabi nomlar shoirani qanoatlantirmaydi. Uning jasorati yigitlarcha, erkaklarcha va telbaligi ularnikidan kam emas. Faylasuflardan biri “Qizlar sevsa, dono, yigitlar sevsa telba bo‘ladi” degan edi. Bu o‘rinda ayni shu mazmunga ishora bor, nazarimizda. Umuman olganda, bu okkazional so‘z mantiqan juda o‘rnida qo‘llangani ko‘rinib turibdi.

³ Matnazar Abdulhakim. Tanlangan asarlar. (1-jild) – T: G‘.G‘ulom, 2017. B.80.

⁴ Matnazarov J.K. Matnazar Abdulhakim she‘riyati lingvopoetikasi / PhD dissertatsiyasi. Urganch, 2022. B.76.

Xullas, Gavhar Ibodullayeva qalamiga mansub she'rlar tilida qo'llangan okkazonal birliklar o'zining favquloddaligi, jozibadorligi, badiiy bo'yoqdorligi va o'rinli qo'llanganligi bilan muhim amaliy-nazariy qimmatga ega. Shoiralarida katta ijodkorlarning so'z yasash qolipiga asoslangan okkazonal yasalish usullaridan ayrimlarini boyitishga harakat qilgan va uni muvafaqqiyatli uddalaganini ko'rish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Виноградова В.Н. Стилистический аспект русского словообразования. - М.: Наука, 1984.
2. Виноградова В.Н. Стилистические средства словообразования // Стилистические исследования. -М.: Наука, 1972, 175-245 б.
3. Ханпира Эр. Окказиональные элементы в современной речи //Стилистические исследования. - М.:Наука, 1972.
4. Винокур Т.Г. Закономерности стилистического использования языковых единиц. - М.Наука, 1980.
5. Бакина М.А. Словотворчество //Языковые процессы в современной русской художественной литературы. Поэзия.- М.:Наука, 1977.
6. Виноградова В.В. Стилистические функции словообразовательно мотивированных слов в художественной прозе // Языковые процессы современной русской художественной литературы. Проза. - М.: Наука, 1977. Будагов Р.А. Эстетика языка //Русская речь. - 1975. - № 5.
7. Ibdodullayeva G. O'zingga meni yor et... She'rlar. – Toshkent, Tafakkur qanoti, 2023.
8. Matnazar Abdulhakim. Tanlangan asarlar. (1-jild) – T: G'.G'ulom, 2017.
9. Matnazarov J.K. Matnazar Abdulhakim she'riyati lingvopoetikasi / PhD dissertatsiyasi. Urganch, 2022.